

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**"KIRITILDI"**



**Nizomiy nomidagi TDPU  
rektoni A.Yu.Umarov  
2021 yil**

**"TASDIQLAYMAN"**



**Oliy va o'rta maxsus ta'limgazirligi  
10.07.2021**

**KASBIY (IJODIY) IMTIHON DASTURI VA  
BAHOLASH MEZONI**

**"Cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahorati", "Musiqa nazariyasi  
va Solfedjio" fanlari**

**5111100 - "Musiqa ta'limi"  
bakalavriat ta'lim yo'naliشining barcha shakllari uchun**

**Toshkent – 2021**

Dastur Toshkent davlat pedagogika universiteti O‘quv-uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan (2021 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_-sonli majlis bayoni).

**Tuzuvchilar:** **Panjiyev Q.B.** – Nizomiy nomidagi TDPU Musiqa nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti v.b., san.f.n.

**Karimova D.A.** – Nizomiy nomidagi TDPU Musiqa nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti

**Ibrahimjanova G.A.** - Nizomiy nomidagi TDPU Musiqa nazariyasi va metodikasi katta o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:** **Azimov B.** – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Xalq cholg‘ularida ijrochilik kafedrasi dotsent, p.f.n.

**Rahimov Sh.N.** - Nizomiy nomidagi TDPU Ijrochilik mahorati va madaniyati kafedrasi dotsenti

## **I.Kirish**

5111100 - Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, bolalar musiqa va san'at maktablari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa madaniyati fani dasturi asosida tuzilgan bo'lib, bakalavr darajasini olish uchun O'zbekiston Respublikasi pedagogika oliy ta'lim muassasalari abituriyentlari uchun mo'ljallangan.

Ushbu dastur cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahorati, musiqa nazariyasi va solfedjio fanlari bo'yicha abituriyentlarning musiqiy ta'lim sohasida nazariy va amaliy bilimlarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan.

## **II. Ijodiy imtihonlarning maqsad va vazifalari**

5111100 - Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning shu sohada bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda musiqa ta'limi sohasi kasbida faoliyat yuritish kompetensiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur ijodiy imtihonlarni o'tkazishning assosiy vazifasi abituriyentlarning boshlang'ich musiqa savodi, biror bir cholg'u asbobda ijro eta olish ko'nikmasini, xonandalik mahoratini aniqlash, musiqa asarlari namunalarini bilish, o'zbek va chet el ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, vokal, xor, an'anaviy xonandalik mahoratini, ansambl, orkestr, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, mashhur sozanda va xonandalar ijodiy faoliyatini, musiqiy atama va iboralarni, musiqa janrlari, musiqada zamonaviylik va an'anaviylik tendensiyalarini, zamonaviy musiqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashni va baholashni nazarda tutadi.

Bunda cholg'u ijrochiligi bo'yicha biror bir cholg'u asbobda o'zbek yoki chel et musiqa asarlarini ijro eta olish ko'nikmasini egallaganlik darjasи; ijro etayotgan musiqa asarini toza, sof hamda dinamik, temp va ritmik jihatdan aniq va to'g'ri ijro etishi; musiqa cholg'usini chuqur his eta olishi; ritm, garmonik ohanglarni ijro etishda barmoq harakatlarini to'g'ri bajarishi; ijro etayotgan asarning muallifi, cholg'u asbobi turi, nomi, tarixi haqida hamda milliy cholg'ular to'g'risida aniq ma'lumotlarga egaligi;

xonandalik bo'yicha xonandalik janrlari; ijro etayotgan asarning nomi, muallifi, janri xususida batafsil ma'lumotlarga ega ekanligi; ijroda sof intonatsion qoidalarga to'la amal qilishi, tonallikni ushlay olish ko'nikmasiga egaligi; tajribasi, ovoz, nafas va ularni ishlata olish mahorati, bu borada orttirgan tajribasi; vokal, xor, estrada, an'anaviy xonandalik asarlarini ijro eta olish mahorati, yo'llari, maktabi, tajribalari haqida bilimlarga egaligi; bastakor, kompozitorlar va ularning faoliyati, ular ijodida yuzaga kelgan musiqiy asarlarni bilishi;

musiqa nazariyasi va solfedjio bo'yicha musiqiy tizim, tovush, nota yozushi qonun-qoidalari, metr, ritm, temp, lad, tonallik, tonalliklar kvarta-kvinta doirasi, turli xil major va minor gammalar, xalq ladlari, interval,akkord, alteratsiya,

xromatizm, tonalliklar pog‘onadoshligi, modulyatsiya va og‘ishma, transpozitsiya, kuy, musiqa bezaklari xususida nazariy bilimlar; bir ovozli kuylarni, tovushdan va tonallikda major, minor hamda xalq ladlari tovushqatorlarini, xromatik gamma, turli xil interval vaakkordlarni yechilishlari bilan yozma ravishda va fortepianoda tuzib sof intonatsiyada kuylash, musiqa elementlarini tinglab aniqlash ko‘nikmalar talab etiladi.

Shu bilan bir qatorda ijodiy imtihonda abituriyentlar, avvalo, musiqa san’atining inson hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati, yoshlarni aqliy, axloqiy, jismoniy va ma’naviy kamol topishidagi roli; milliy ong, milliy tafakkur, milliy g‘urur, Vatanni sevish uni ardoqlash hislarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida aniq tushunchaga ega bo‘lishlari; musiqa san’ati vositasida milliy g‘oyani o‘quvchi-yoshlar qalbiga singdirib borish yo‘llarini tasavvur qila olishlari; Respublikamizning mustaqillik yillarida O‘zbekistonda san’at va musiqiy ta’limni yuksak rivoj topganligi haqida asosli va mantiqli fikr-mulohaza yurita olishlari talab etiladi.

### **III. Abituriyentning bilimiga qo‘yiladigan talablar**

Abituriyent cholg‘u ijrochiligi va xonandalik mahoratini egallagan bo‘lishi, uni namoyish eta olishi hamda musiqiy-nazariy bilimlarni hamda atama va tushunchalarni bilishi, musiqa elementlarini kuylash va tinglab aniqlab berishi, notaga qarab kuylab berishi lozim.

### **IV. Ijodiy imtihon o‘tkazish tartibi**

Kasbiy ijodiy imtihon ikkita fan doirasida o‘tkaziladi, har bir fan bo‘yicha abituriyent bilimi va ijodiy mahoratiga alohida ball qo‘yiladi. To‘plagan ball natijalari umumlashtiriladi va ballar ketma-ketligida qabul komissiyasiga taqdim etiladi.

Cholg‘u ijrochiligi va xonandalik mahorati bo‘yicha ijro etilgan asarlar ro‘yxati (repertuar), abituriyent tomonidan yozma tarzda imzolangan holda ijodiy imtihon komissiya raisiga topshiriladi.

Musiqa nazariyasi va solfedjio bo‘yicha egallagan nazariy bilimlari yozma ish, diktant, tinglab kuylash, tinglab chalib berish, tinglab aniqlash kabi qator topshiriqlar asosida aniqlanadi.

Kasbiy (ijodiy) kirish imtihonlarning umumiyligi bali – **186** balni tashkil etadi.

1. Cholg‘u ijrochiligi va xonandalik mahorati uchun – **93 ballgacha**;
2. Musiqa nazariyasi va solfedjio uchun – **93 ballgacha**.

Cholg‘u ijrochiligi va xonandalik mahorati, musiqa nazariyasi va solfedjio bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uchun jami bir soat (60 daqiqa) vaqt ajratiladi.

### **V. Kasbiy (ijodiy) imtihon mazmuni**

#### **V. 1.1. Cholg‘u ijrochiligi va xonandalik mahorati**

##### **a) baholash mezonlari:**

ushbu imtihonda abituriyentdan mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi bo‘yicha turlicha bo‘lgan uchta musiqa asarini ijro etishi talab etiladi. Shuningdek, qo‘srimcha tarzida O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi

kuyini chalib, kuylab berishi, O'zbekistonning mashhur kompozitorlari va taniqli bastakor-sozandalarini bilishi, mustaqillik yillarida respublikamizda musiqa san'atini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida o'z fikrlarini bayon etishi talab etiladi.

<b>№</b>	<b>Cholg'u ijrochiligi bo'yicha ijro etiladigan asar janri va og'zaki savol-javob mazmuni</b>	<b>Ballar taqsimoti</b>
1-asar	Yirik shakldagi asar (sonatina, sonata, variatsiya, konsert va boshqalar)	0 - 13
1a. asar yuzasidan og'zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.	0 - 2
2-asar	Polifonik asarlar (invensiya, fuga, prelyudiya va fuga, va boshqalar) // O'zbek xalq kuylari va bastakorlarning cholg'u kuylari.	0 - 13
2a. asar yuzasidan og'zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati	0 - 2
3-asar	Xorijiy va O'zbekiston kompozitorlari ijod qilgan pyesa yoki etyud	0 - 10
3a. asar yuzasidan og'zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati	0 - 2
4. Og'zaki javb (kollokvium)	Musiqiy cholg'ular tarixi va ularning xususiyatlari, cholg'u musiqaning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda ahamiyati to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.	0 – 4,5
<b>Jami</b>		<b>46,5</b>

**Izoh:** kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi musiqiy cholg'ular bilan ta'minlash majburiyatini olmaydi. Abituriyentlar ijro etadigan musiqa cholg'usini o'zi bilan birga olib keladi va sozlagan holda ijro etadilar. Kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida konsertmeyster jo'rligidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a'zolari o'zlarining ixtisoslik sohasidan kelib chiqqan holda abituriyent bilimini baholaydi. Baholar umumlashgan holda e'lon qilinadi.

Abituriyentga har bir asar ijrosiga 2-3 daqiqa, 3 ta asarni ijro etish uchun uzog'i bilan 6-8 daqiqa vaqt beriladi. Og'zaki savol-javoblar uchun 4-5 daqiqa vaqt ajratiladi.

Cholg‘ ijrochiligi bosqichi (qismi) uchun jami 12-13 daqiqagacha vaqt ajratiladi.

### **b) Taxminiy asarlar ro‘yhati**

#### **Fortepiano:**

1. Yirik shakldagi asarlar: N.Zakirov “Sonata”, F.Nazarov “Kontsert”, M.Klementi, L.Betxoven, Y.Gadn, V.A.Motsart, F.Shubert, M.I.Glinka, A.K.Glazunov va boshqa chet el kompozitorlar sonatina, sonata va kontsertlari.

2. Polifonik asarlar: I.S.Baxning “Frantsuz syuitalari”, ikki va uch ovozli inventsiyalari, XTK 1-tom prelyudiya va fugalari, shuningdek G.Gendel, R.Shuman, M.I.Glinka, A.K.Glazunov, D.D.Shostakovich, G.Mushel kabi kompozitorlarning polifonik asarlari.

3. Pyesa: F.Shopen, Y.Brams, F.List, E.Grig, P.I.Chaykovskiy, S.Raxmaninov, M.Ashrafiy “So‘zsiz qo‘sish”, X.Azimov “Noktyurn”, P.Xalikov “Dutor navolari” va boshqa asarlar, shuningdek K.Cherni, M.Klementi, I.Mosheles, F.Shopen va boshqa kompozitorlar etyudlari.

#### **O‘zbek xalq cholg‘ularida:**

1. Yirik shakldagi asarlar – O‘zbekiston va chet el kompozitorlarining sonatina, sonata, kontsert v.b.

2. O‘zbek xalq kuylari – “Dugox”, “Segox”, “Yolgiz”, “Navruzi ajam”, “Rajabiy”, “Kushchinor”, “Tanovar”, “Munojat” va b.

3. O‘zbekiston kompozitorlarining asarlari - F.Vasilev obrabotkasi “Dutor bayoti”, M.Bafoev “Poema”, F. Nazarov “Poema”si, D.Zakirov “Qo‘sish va raqs”, “Ko‘rmadim” T.Jalilov, “Otmagay” va boshqalar.

## **V. 1.2. Xonandalik mahorati**

### **a) baholash mezonlari:**

ushbu imtihonda abituriyentdan musiqa asarining mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi bo‘yicha turlicha bo‘lgan uchta musiqa asarini kuylab berishlari talab etiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasini kuylab berishi, O‘zbekistonning mashhur kompozitorlari va taniqli bastakor-sozandalarini bilish va mustaqillik yillarda respublikamiz san’atni yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida o‘z fikrini bayon etishi talab etiladi.

<b>№</b>	<b>Xonandalik mahorati bo‘yicha ijro etiladigan asar janri va og‘zaki savol-javob</b>	<b>Ballar taqsimoti</b>
1-asar	Maqom, an'anaviy xonandalik, o‘zbek va chet el kompozitorlarining ariya, romans, estrada qo‘sishlari	0 - 13
1a. asar yuzasidan og‘zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor/bastakori to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo’llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik mahorati	0 - 2

2-asar	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-, 6-, 7- sinf “Musiqqa madaniyati” fani dasturidan o‘rin olgan qo‘shiqlardan namunalar	0 - 13
2a. asar yuzasidan og‘zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor//bastakori to‘g‘risidagi bilimlari nutqi (maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik mahorati	0 - 2
3-asar	O‘zbek va chet el xalq qo‘shiqlari	0 - 10
3a. asar yuzasidan og‘zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to‘g‘risidagi bilimlari nutqi (maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyat	0 - 2
4. Og‘zaki javob (kollokvium)	Xonandalik tarixi, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va ahamiyati hamda o‘zbek va chet el kompozitor (bastakor)lari to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyat.	0 – 4,5
<b>Jami</b>		<b>46,5</b>

**Izoh:** abituriyentlar xonandalik fanidan kasbiy (ijodiy) imtihon vaqtida o‘zi ixtiyoriy cholg‘u asbobida chalib ijro qilishi mumkin. Abituriyentlarning iqtidorini va ijodiy qobiliyatini baholash shaffofligini ta’minlanish uchun kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida konsertmeyster jo‘rligidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a’zolari o‘zlarining ixtisoslik sohasidan kelib chiqqan holda abituriyent bilimini baholaydi. Baholar umumlashgan holda e’lon qilinadi.

Abituriyentga har bir asar ijrosiga 2-3 daqiqa, 3 ta asarni ijro etish uchun uzog‘i bilan 6-8 daqiqa vaqt beriladi. Og‘zaki savol-javoblar uchun 4-5 daqiqa vaqt ajratiladi.

Jami xonandalik asarlari ijrosi bo‘yicha bosqichi 12-13 daqiqagacha vaqt ajratiladi.

Cholg‘u ijrochiligi va xonandalik boyicha xonandalik asarlari alohida va cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ijro etiladi, va umumiy 93 ball hisobidan baholanadi. Baholar qaydnomada aks ettiriladi.

### b) taxminiy asarlari ro‘yxati

1. O‘zbek va chet el kompozitorlar operalaridan ariya, romans, estrada qo‘shiqlari.

2. Umumta’lim maktabning 5-, 6-, 7- sinf musiqqa madaniyati fani dasturidan o‘rin olgan qo‘shiqlar.

3. O‘zbek va chet el xalq qo‘shiqlari – “Omon yor”, “Tanovar”, alla, to‘y marosim qo‘shiqlari, yalla, lapar va h.

## V. 2. Musiqa nazariyasi va solfedjio

### a) baholash mezonlari:

Musiqiy tovush va uning xususiyatlari, musiqiy tizim tovushqatori. Musiqaviy soz, temperatsiyalangan soz. Tovushlarning harfiy tuzilmada ifodalanishi. Tovushlar, interval,akkordlar engarmonizmi. Nota yozuvi, nota cho'zimlari va ularga qo'yiladigan tovushlar cho'zimini uzaytiruvchi qo'shimcha belgilar, nota yozuvini qisqartirish belgilari. Metr, Ritm, sinkopa, cho'zimlarning turkumlanishi. Oddiy, Murakkab, Aralash va o'zgaruvchan metrlar va o'lchovlar. Oddiy va tarkibli intervallar. Diatonik va Xromatik intervallar. Intervallarning engarmonik tengligi. Intervallarning aylanishi. Ohangdosh (konsonans) va noohangdosh (dissonans) intervallar. Alteratsiya. Lad. Tonallik. Turg'un va noturg'un tovushlar hamda ularning yechilishi. Major va minor ladi. Uchtovushlik va ularning aylanmalari. Septakkord va ularning aylanmalari. Og'ishma, modulyatsiya, transpozitsiya kabi mavzulardagi nazariy materiallarni bilish.

Major, minor, xalq ladlari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko'rsatilgan tonallikda tuzib va kuylab berish. Kalmikov va Fridkin "Birovozli solfedjio" o'quv qo'llanmasidan berilgan kuy misolini notaga qarab kuylash. Interval, akkord, lad tovushqatorlarini tinglab aniqlash.

<b>Nº</b>	<b>Musiqa nazariyasi va solfedjio vazifalar turlari</b>	<b>ballar taqsimoti</b>
1.	Nazariy materiallarni bilish.	0 – 21,5
2.	Major, minor, xalq ladlari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko'rsatilgan tonallikda tuzish va kuylash	0 - 25
3.	Takt hissalarini qo'l harakatini ko'rsatib kuy misolini notaga qarab kuylash	0 - 25
4.	Tinglab aniqlash	0 – 21,5
<b>Jami</b>		<b>93</b>

Musiqa nazariyasi va solfedjio bo'yicha abituriyentlardan musiqiy-nazariy bilimlarni aniqlash, nota asarlarning solfedjio qilib kuylash, musiqiy eshitish qobiliyatini tekshirishda jami bo'lib abituriyentga 20 daqiqa vaqt ajratiladi.

## VI. Ijodiy imtihonlar natijalarining baholash mezoni

### VI. 1. Cholg'u ijrochiligi va vokal xonandaligi

<b>Baholash kategoriyasi</b>	<b>Baholash mezoni</b>	<b>1-asar uchun ball</b>	<b>2-asar uchun ball</b>	<b>3-asar uchun ball</b>	<b>4-javob uchun ball</b>
<b>Cholg'u ijrochiligi</b>					
1-“A’lo”	Asar ijrosi yorqin va maromiga	12-13	12-13	10	4,5

	yetkazilgan, texnik jihatdan mukammal va badiiy jihatdan ifodali.				
	Og‘zaki javobi to‘laqonli	2	2	2	-
2-“Yaxshi”	Asar ijrosi bir oz kam yorqin bo‘lib, badiiy jihatdan to‘g‘ri, ammo texnik jihatdan mukammal bo‘lib, ayrim noaniqliklarga yo‘l qo‘yilgan.	10-11	10-11	8-9	4
	Og‘zaki javobi to‘liqsiz.	1,5	1,5	1,5	-
3-“Qoniqarli”	Cholg‘uda ijro etish ko‘nikmalari sust, nota matni nato‘g‘ri yodlangan	8-9	8-9	6-7	3
	Og‘zaki javobi to‘liqsiz va ayrim noaniqliklari bilan.	1	1	1	-
4-“Qoniqarsiz”	Asar ijrosi yoddan emas, yoki cholg‘uda ijro etish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan.	-	-	-	-
	Og‘zaki javobi sust yoki yo‘qligi	-	-	-	0-2

### Xonandalik mahorati

1-“A’lo”	Asar ijrosi yorqin va maromiga yetkazilgan, intonatsion jihatdan aniq, toza va ifodali.	12-13	12-13	10	4,5
	Og‘zaki javobi to‘laqonli	2	2	2	-
2-“Yaxshi”	Asarni badiiy ijro etishda yorqinligi bir oz kamroq, tenik ijro jihatidan meyoriga yetmagan, ayrim noaniq intonatsiyalar mavjud	10-11	10-11	8-9	4
	Og‘zaki javobi to‘liqsiz.	1,5	1,5	1,5	-
3-“Qoniqarli”	Kuylash ko‘nikmalari sust, ijrosi noaniq (falsh), tonallikda turmaslik, nota matni nato‘g‘ri yodlangan	8-9	8-9	6-7	3
	Og‘zaki javobi to‘liqsiz va ayrim noaniqliklari bilan.	1	1	1	-
4-“Qoniqarsiz”	Asar ijrosi yoddan yemas, intonatsiya falsh (musiqiy eshitish qobiliyati yo‘qligi) yoki ijro etib bera olmasligi.	-	-	-	-
	Og‘zaki javobi sust yoki yo‘qligi.	-	-	-	0-2

### VI. 2. Musiqa nazariyasi va solfedjio

No	Baholash mezoni	1-vazifa	2-vazifa	3-vazifa	4-vazifa
1-“A’lo”	Vazifaning to‘liq bajarilishi,	20-21,5	23-25	23-25	20-21,5

	intonatsiyasi aniq, toza, sof.				
2-“Yaxshi”	Vazifaning ayrim noaniqliklar bilan bajarilishi, intonatsiya ayrim joylarda aniq emasligi (falsh).	<b>17-19</b>	<b>19-22</b>	<b>19-22</b>	<b>17-19</b>
3-“Qoniqarli”	Materialni sust bilishi, intonatsiya ayrim joylarda aniq emasligi (falsh), lekin javob berish jarayonida intilish va qiziqishlari mavjudligi.	<b>13-16</b>	<b>15-18</b>	<b>15-18</b>	<b>13-16</b>
4-“Qoniqarsiz”	Materialni bilmasligi, intonatsiya aniq emasligi (falsh)	<b>0-12</b>	<b>0-14</b>	<b>0-14</b>	<b>0-12</b>

## **VII. Ko‘zi ojiz abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihon natijalarini baholash mezoni**

Yuqorida ta’kidlanganidek 5111100 - Musiqa ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan ijodiy imtihon dasturiga ko‘ra shu yo‘nalishga oid bo‘lgan cholg‘u asbobida asar ijro etish, qo‘sinq kuylash, musiqa nazariyasi va solfedjio fanlaridan abituriyentlarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini aniqlash talablari kiritilgan.

Har bir ko‘zi ojiz abituriyent ijodiy imtihon yakuni bo‘yicha jami 5 baho to‘plash imkoniga ega. To‘planadigan baho predmetlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- a) Cholg‘u ijrochiligi – 5 baho;
- b) Qo‘sinq kuylash – 5 baho;
- c) Musiqa savodxonligi – 5 baho;
- d) Solfedjio – 5 baho.

Abituriyentning o‘rtacha bahosi qaydnomaga kiritiladi

### **Ijodiy imtihon predmetlari bo‘yicha belgilangan ballar taqsimoti**

Baho	Abituriyentning bilim darajasi baholanishida quyidagilar e’tiborga olinadi
5 (a’lo)	Musiqiy ta’lim bo‘yicha barcha dasturdagi belgilangan asarlar ifodali, to‘liq va mukammal, mahorat bilan ijro etilsa, ijodiy fikrlay olishi, qo‘sinq kuylash bo‘yicha 2 ta turli xarakterdagi va keng diapazondagi (ovozi kengligi va kuchli namoyish etish uchun) qo‘sinq ijro etilishi, Cholg‘uda ijro tekis, nafas olish qoidalariga rioya qilib badiiy jihatdan mahorat bilan bajarilsa, berilgan dasturdagi vazifalarni nazariy va amaliy tomondan to‘g‘ri hamda to‘liq bajarilganligi, solfedjioni o‘qish va kuylash mahorati yuqori bo‘lsa.
4 (yaxshi)	Musiqiy ta’lim bo‘yicha barcha dasturdagi belgilangan asarlar ifodali ijro etilsa. Cholg‘uda ijro tekis, nafas olish qoidalariga rioya qilishdan chekinsa, badiiy jihatdan mahorat bilan bajarilsa, berilgan dasturdagi vazifalarni nazariy va amaliy tomondan to‘g‘ri bajarilsa,

	Solfedjioni o‘qish va kuylash mahorati yetarli bo‘lsa.
3 (qoniqarli)	Cholg‘uda ijro uchun tanlangan asarlar biroz sodda va bir xil turdag'i (xarakterdagi) asarlar bo‘lsa, ijro badiiy jihatdan nisbatan sayozroq ijro etilsa, ijroda so‘zlar yoddan aytib berilmasa, kuy ohangda va badiiylikda xatoliklarga yo‘l qo‘yilsa.
2 (qoniqarsiz)	Cholg‘uda ijro qilingan asar matnidan chekinish, xatolarga yo‘l qo‘yilsa, badiiy tomonidan mazmunini yetkazib ijro eta olmasa, asar ijrosida matndan, sur’atdan chiqib ketish va badiiy ijroda xatolikka yo‘l qo‘yilsa va ifodasiz ijro etilsa.

## **VII. Apellyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishslash hay’atiga imtixon natijalari e’lon qilingandan so‘ng 24 soat davomida yozma murojaat qilishlari mumkin. Murojaat faqat o‘zining to‘plagan ballari yuzasidan bo‘lsa, qabul qilinadi.

Apellyatsiya komissiyasi a’zolari oliy ta’lim muassasasi rektori buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

**Abituriyent \_\_\_\_\_ ning**  
**Cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha taqdim etgan cholg‘u asarlari bo‘yicha to‘plagan ballari**  
**QAYDNOMASI**

	<b>Cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ijsro etiladigan asar janri va og‘zaki savol-javob mezoni</b>	<b>Taqdim etilgan asar va uning ijsro holati (yoziladi)</b>	<b>Ball taqsimoti</b>	<b>To‘plagan bali</b>
1.	Yirik shakldagi asar (Sonatina, Sonata, Variatsiya, Konsert va boshqalar)		0 - 13	
1a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo`llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.		0 - 2	
2.	Polifoniya (Invensiya, Fuga, Prelyudiya va fuga, va boshqalar) // O‘zbek xalq kuylari va bastakorlarning cholg‘u kuylari.		0 - 13	
2a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo`llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati		0 - 2	
3.	Pъesa, etyud		0 - 10	
3a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo`llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qibiliyati		0 - 2	
4.	Musiqiy cholg‘ular tarixi va ularning xususiyatlari, cholg‘u musiqanining ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni hamda ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo`llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyati.		0 – 4,5	
<b>Jami</b>			<b>46,5</b>	

**Ijodiy imtihon komissiyasi:**

**Abituriyent imzosi:**

**Abituriyent \_\_\_\_\_ ning**  
**Xonandalik mahorati bo'yicha taqdim etgan asarlari yuzasidan to'plagan ballari**  
**QAYDNOMASI**

	<b>Xonandalik bo'yicha ijro etiladigan asar janri va og'zaki savol-javob mezoni</b>	<b>Taqdim etilgan asar va uning ijro holati (yoziladi)</b>	<b>Ball taqsimoti</b>	<b>To'plagan bali</b>
1.	Maqom, an'anaviy xonandalik, o'zbek va chet el kompozitorlarining ariya, romans, estrada qo'shiqlari		0 - 13	
1a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor//bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik mahorati		0 - 2	
2.	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-, 6-, 7- sinf "Musika madaniyati" fani dasturidan o'rin olgan qo'shiqlardan namunalar		0 - 13	
2a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor//bastakori to'g'risidagi bilimlari nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik mahorati		0 - 2	
3.	O'zbek va chet el xalq qo'shiqlari		0 - 10	
3a	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyat		0 - 2	
4	Xonandalik tarixi, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va ahamiyati hamda o'zbek va chet el kompozitor (bastakor)lari to'g'risidagi bilimlari, nutqi (maxsus atamalar qo'llanilgan nutqning ifodaligi) va pedagogik qobiliyat.		0 - 4,5	
<b>Jami</b>			<b>46,5</b>	

**Ijodiy imtihon komissiyasi:**

**Abituriyent imzosi:**

**Abituriyent \_\_\_\_\_ ning**  
**Musiqa nazarisi fanidan baholash mezonlari asosida to‘plagan ballari**  
**qaydnomasi**

<b>Nº</b>	<b>Musiqa nazariyasi (solfedjio) vazifalar turlari</b>	<b>Topshirqlarga abituriyent tomonidan berilgan javoblar (yoziladi)</b>	<b>Ballar taqsimoti</b>	<b>Abituriyent to‘plagan ballar</b>
1.	Nazariy materiallarni bilish		0 – 21,5	
2.	Major, minor, xalq ladlari tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko‘rsatilgan tonallikda tuzish va kuylash		0 - 25	
3.	Takt hissalarini qo‘1 harakatini ko‘rsatib kuy misolini notaga qarab kuylash		0 - 25	
4.	Tinglab aniqlash		0 – 21,5	
<b>Jami</b>			<b>93</b>	

**Ijodiy imtihon komissiyasi:**

**Abituriyent imzosi:**